

## YIRIK VA KICHIK QURILISH KORXONALARIDA INTEGRATSION ALOQALARNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

*Otajonov Shuxratjon Erkinjonovich*

*Qoqon davlat universiteti assistent o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yirik va kichik qurilish korxonalarida integratsion aloqalarni samaradorligini oshirish yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Mamlakatimiz qurilish sohasida kichik biznes subyektlarining yirik korxonalar bilan o‘zaro hamkorligini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik kichik biznes subyektlarining bozorga kirib kelishini yengillashtirish, yirik korxonalar texnologiyalaridan birgalikda foydalanish, respublikamizning yirik shaharlarida kichik va yirik biznes o‘rtasidagi integratsion aloqalarni kengaytirish hamda birgalikdagi faoliyat natijasida yuzaga keladigan sinergetik samarani oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Yirik va kichik korxonalar, samaradorlik, subpudratchilik, integratsion aloqalar, sinergetik samara, vaxta usuli.

### KIRISH

Yangi O‘zbekistonni barpo etish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi farovonligini oshirish, yashash sharoitlarini yaxshilash, xususan, aholining zamonaviy talablarga javob beradigan hamda arzon uy-joylarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, uy-joy bozoridagi keskinlikni yumshatish, hududlarda infratuzilmani rivojlantirish, shaharsozlik normalari va qoidalarini yangi bosqichga olib chiqish kabi masalalar ham o‘z yechimini kutmoqda. Mazkur vazifalarni samarali hal etish uchun qurilish ishlari sifatini xalqaro talablar darajasiga ko‘tarish, mamlakatda qurilish industriyasini rivojlantirish hamda qurilish sohasi taraqqiyotini izchil ta‘minlash zarur.

Qurilish sohasida kichik va yirik biznes subyektlari o‘rtasida integratsion aloqalarni shakllantirish yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining bozorga kirib kelishi, unda barqaror faoliyat yuritishi hamda raqobat muhitida o‘z o‘rnini topishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Amaliyotda kichik biznes subyektlarining yirik korxonalar bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yishning bir qator samarali yo‘nalishlari mavjud. Odatda kichik biznes vakillari bosqichma-bosqich yirik korxonalar bilan hamkorlik munosabatlarini shakllantiradi, ularning faoliyat doirasiga kirib boradi va mazkur tizimda o‘ziga xos muhim subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda tadbirkorlik subyektlarining boshqaruv apparatida faoliyat yurituvchi kadrlarning malakasi va kasbiy salohiyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunday integratsion jarayonlar natijasida kichik biznes subyektlari yirik biznes vakillarining raqibi sifatida emas, balki ularning hamkori sifatida shakllanadi. Shu orqali ular yirik bozor segmentlariga kirib borish, mazkur bozorda o‘z mavqegini mustahkamlash va faoliyat ko‘lamini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Boshqa

tomondan, rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilgani kabi, qurilish sohasidagi kichik biznes subyektlari katta hajmdagi qurilish ishlarini mustaqil ravishda qabul qilish imkoniyatiga har doim ham ega emas. Chunki ularning moliyaviy resurslari, ishlab chiqarish salohiyati va texnik imkoniyatlari ko‘pincha cheklangan bo‘ladi.

Yirik biznes subyektlari esa katta hajmdagi qurilish ishlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, qurilish jarayonining barcha bosqichlarini o‘z kuchi bilan amalga oshirish ular uchun har doim ham iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanmaydi. Bunday holatlarda yirik korxonalar kichik biznes subyektlari bilan hamkorlik qilishga ehtiyoj sezadi va shu asosda ular o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlari shakllanadi.

Mazkur hamkorlik shakli har ikki tomon uchun ham foydali hisoblanadi. Yirik biznes subyektlari katta hajmdagi ishlarni qisqa muddatlarda bajarish imkoniyatiga ega bo‘lsa, kichik biznes subyektlari esa yirik korxonalar bilan hamkorlik qilish orqali ularning tajribasi, obro‘si va bozor imkoniyatlaridan foydalanib, qurilish bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlash imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimiz qurilish sohasida kichik biznes subyektlarining yirik korxonalar bilan o‘zaro hamkorligini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik kichik biznes subyektlarining bozorga kirib kelishini yengillashtirish, yirik korxonalar texnologiyalaridan birgalikda foydalanish, respublikamizning yirik shaharlarida kichik va yirik biznes o‘rtasidagi integratsion aloqalarni kengaytirish hamda birgalikdagi faoliyat natijasida yuzaga keladigan sinergetik samarani oshirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, rivojlangan mamlakatlar tajribasida qurilish sohasida kichik va yirik biznes hamkorligining asosiy shakllaridan biri sifatida namoyon bo‘layotgan subpudratchilik faoliyatini shakllantirish bugungi kunda obyektiv zaruratga aylanmoqda. Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan qurilish sohasida pudratchilik asosidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish maqsadga muvofiq bo‘lib, bunday hujjatlar qurilish tarmog‘ini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, afsuski, subpudratchilik faoliyatining me‘yoriy-huquqiy asoslarini shakllantirish masalasiga yetarli darajada e‘tibor qaratilmagani sababli mazkur muammo hanuzgacha to‘liq yechim topmagan. Bu borada faqat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktyabrdagi “Uzoq masofada joylashgan va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarda qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishning vaxta usuli to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori qabul qilingan bo‘lib, ushbu nizomda subpudratchilik masalalariga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Mazkur nizomga ko‘ra, vaxta usulida bajarilishi rejalashtirilgan ishlarning aniq hajmi va turlari pudratchi hamda buyurtmachi o‘rtasida qurilish ishlarini bajarish bo‘yicha pudrat shartnomasi tuzilayotganda belgilanadi. Subpudratchi tashkilotlar uchun esa bu ko‘rsatkichlar subpudrat shartnomasi tuzilish jarayonida aniqlashtiriladi. Shuningdek, ishlarni vaxta usulida tashkil etish bilan bog‘liq haqiqiy xarajatlar

hisoblangan ko‘rsatkichlardan ortib ketgan taqdirda, ular o‘rtasidagi farq qurilish bo‘yicha bosh pudratchi yoki subpudratchi tashkilotning asosiy faoliyati hisobidan qoplanishi belgilangan. Biroq nizomda pudratchi va subpudratchilar tushunchalarining mazmuni, ularning asosiy vazifalari hamda o‘zaro munosabatlari yetarli darajada yoritilmagan.

Xususan, qurilish sohasida kichik biznes subyektlarini rivojlantirishga doir me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning yetarli emasligi, ayrim qonunchilik normalarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zarurati, kichik qurilish korxonalarining zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta‘minlanish imkoniyatlari cheklangani ushbu sohadagi asosiy muammolar qatoriga kiradi. Shuningdek, qurilish sohasida faoliyat yurituvchi yirik biznes subyektlari sonining nisbatan kamligi, kichik va yirik qurilish korxonalari o‘rtasida integratsion aloqalarni samarali tashkil etish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmagani, huquqiy savodxonlik darajasining pastligi hamda nazorat qiluvchi tashkilotlar tomonidan yuzaga keladigan ma‘muriy to‘siqlar ham soha rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Natijada qurilish sohasida korrupsion holatlarning uchrashi, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish jarayonida turli muammolarning yuzaga kelishi, shuningdek, qurilish ishlarini amalga oshirishda norasmiy sektor ulushining yuqori darajada saqlanib qolishi kabi holatlar ko‘p kuzatilmoqda.

## METODOLOGIYA

Subpudratchilik shaklidagi hamkorlikdan foydalanish qurilish jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Chunki ayrim qurilish loyihalarida loyiha qiymatining 90 foizigacha bo‘lgan qismi subpudratchilar tomonidan ta‘minlanadigan ishchi kuchi, materiallar va buyurtma asosida tayyorlanadigan chizmalar bilan bog‘liq xarajatlarga to‘g‘ri keladi. Shu bois tegishli subpudratchilarni to‘g‘ri tanlash va ular bilan munosabatlarni samarali boshqarish loyiha ijrosida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shunga qaramay, ushbu masalaga faqat so‘nggi yillarda jiddiy e‘tibor qaratila boshlagani kuzatiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda qurilish sohasining barqaror rivojlanishi uchun faqat buyurtmachilar va bosh pudratchilar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash yetarli emasligi ta‘kidlanadi. Bunda subpudratchilar va yetkazib beruvchilar o‘rtasida butun qiymat zanjiri bo‘ylab samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham muhim hisoblanadi. Ammo hozirgi vaqtga qadar sheriklik tushunchasi ko‘proq buyurtmachi va pudratchi munosabatlari doirasida talqin etilgani sababli, subpudratchi firmalarning loyiha samaradorligini oshirishdagi hissasi ko‘pincha yetarlicha baholanmay kelmoqda.

Ko‘plab xorijiy qurilish korxonalari qurilish jarayonlari samaradorligini oshirish maqsadida raqobat strategiyasini aniqlash hamda korxonalar tuzilmasini qayta tashkil etishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Ushbu korxonalar tomonidan qo‘llanilayotgan muhim strategiyalardan biri subpudratchilik hisoblanadi. Mazkur yondashuv orqali qurilish jarayonining davomiyligini qisqartirish, ishlarning ayrim qismlarini maqbullashtirish va bajariladigan ishlarning katta qismini uchinchi tomonlarga topshirish orqali umumiy samaradorlikni oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, mamlakatimiz qurilish sohasida subpudratchilik asosida qurilish ishlarini tashkil etish mexanizmlari quyidagi yoʻnalishlarda shakllantirilishi mumkin:

– qurilish korxonalarining turli taʼminotchilar hamda xizmat koʻrsatuvchi subyektlar bilan integratsion aloqalarini yoʻlga qoʻyish;

– qurilish ishlarining texnologik jarayoniga kiruvchi asosiy va yordamchi qismlarini bajarishga ixtisoslashgan, maxsus subpudratchilik faoliyati bilan shugʻullanuvchi kichik korxonalarini tashkil etish;

– qurilish ishlarini amalga oshirish bilan bogʻliq tovarlar va xizmatlar tarkibiga kiruvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishga yoʻnaltirilgan kichik subpudratchi korxonalarini shakllantirish;

– qurilish korxonalarini zarur malaka, tajriba va maxsus koʻnikmalarga ega boʻlgan ishchi kuchi bilan taʼminlashga xizmat qiluvchi onlayn tizimni yaratish hamda ushbu subyektlar oʻrtasida integratsion hamkorlikni yoʻlga qoʻyish.

Yirik korxonalar va subpudratchilik asosida faoliyat yurituvchi kichik korxonalar, yaʼni kichik biznes subyektlari oʻrtasidagi integratsiyalashuvda asosiy muammolardan biri hamkorlikning barqarorligi hamda integratsiya “hayotiy sikli”ning davomiyligi bilan bogʻliqdir. Boshqacha aytganda, kichik va yirik korxonalar integratsion hamkorlikni yoʻlga qoʻyish uchun muayyan mablagʻ sarflaganidan soʻng kutilgan foyda normasiga erisha olmasligi mumkin. Shuningdek, shartnomada belgilangan talablarning hamkorlardan biri tomonidan toʻliq yoki qisman bajarilmasligi ham shartnomaviy munosabatlarning izdan chiqishiga olib keladi. Shu sababli bunday salbiy oqibatlarining oldini olish uchun korxonalar mazkur integratsiyalashuvning oʻzlari uchun iqtisodiy jihatdan foydali va istiqbolli ekanligiga oldindan ishonch hosil qilishlari zarur.

Tadqiqotimizning ushbu boʻlimida subpudratchilik shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi qurilish sohasidagi yirik korxonalar va subpudratchilar oʻrtasidagi hamkorlik barqarorligini taʼminlashga xizmat qiluvchi ayrim shart-sharoitlar koʻrib chiqiladi. Ushbu masalani nazariy jihatdan asoslashda klassik integratsion hamkorliklarni baholashga xizmat qiluvchi matematik vositalardan foydalaniladi.

Mazkur matematik vositalardan foydalanish uchun subpudratchilik shartnomasida ishtirok etuvchi qurilish korxonalarini maʼlum shartlar asosida tavsiflanadi. Bunda ular joylashgan hududning respublikaga xos iqtisodiy xususiyatlari va imkoniyatlari, shuningdek, qurilish ishlari hamda qurilish materiallari bozoridagi mavjud vaziyat inobatga olinadi. Shu asosda bir xil ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega obyektlarni tashkil etishi mumkin boʻlgan yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda subpudratchilikka ixtisoslashgan kichik korxonalar asosiy ishtirokchilar sifatida qabul qilinadi. Xuddi shu yondashuv asosida yirik korxonaning kichik korxonalar, mikrofirmalar yoki yakka tartibdagi tadbirkor bilan kooperatsion aloqalarini modellashtirish masalasini ham qoʻyish mumkin.

Matematik vositalardan foydalangan holda subpudratchilik faoliyati samaradorligini baholash uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$P_s(p_b)$  – subpudratchilik asosida ishlayotgan kichik (yirik) qurilish korxonasi

tomonidan ishlab chiqilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlarning o'rtacha bahosi;

$q_s(q_b)$  – subpudratchilik asosida ishlayotgan kichik (yirik) korxonalar tomonidan avtonom holda ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulot hajmi;

$p_s q_s$  – avtonom holda ishlayotgan subpudratchilikka ixtisoslashgan kichik korxonaning daromadi;

$p_b q_b$  – avtonom holda ishlayotgan yirik korxonaning daromadi;

$p_s^s q_s^s$  – subpudratchilik shartnomasi asosida ishlayotgan kichik korxonaning daromadi;

$p_b^s q_b^s$  – subpudratchilik shartnomasi asosida ishlayotgan yirik korxonaning daromadi;

$C_s$  – avtonom holda ishlayotgan kichik korxonaning jami xarajatlari;

$C_s^s$  – subpudratchilik shartnomasi asosida yirik korxonaning bilan hamkorlikda ishlayotgan kichik korxonaning xarajatlari;

$C_b$  – avtonom holda ishlayotgan yirik korxonaning jami xarajatlari;

$C_b^s$  – subpudratchilik shartnomasi asosida kichik korxonaning bilan birga ishlayotgan yirik korxonaning xarajatlari (marketing tadqiqotlarini o'tkazish, o'qitish bo'yicha va x.k. xarajatlari bilan birga).

Sinergetik samarani baholash maqsadida tahlilni amalga oshirilishi mavjud vaziyatda integratsiya qatnashchilari (hamkorlar) sifatida yirik qurilish korxonasi va subpudratchilikka ixtisoslashgan kichik korxonalar qatnashdi va shuning uchun ham I o'yinlar to'plami ikki elementdan tashkil topadi I- $\{1,2\}$ .

Agar quyida keltirilgan shart o'rinli deb topilsa, keltirilgan tengsizlik sharoitida (I,W) o'yin mohiyatli deb hisoblanadi va integratsion hamkorlikni tashkil qilish ikkala ishtirokchi uchun ham samarali bo'ladi:

$$\sum_{i \in I} W(i) < W(I) \quad (1)$$

bu yerda,  $W(i)$  – yakka holda faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonasi yutug'i ( $i = 1,2$ ),  $W(I)$  – hamkorlik asosida olinadigan yutuq.

Mazkur holatda yirik va kichik qurilish korxonalarining alohida faoliyat yuritishi natijasida oladigan daromadlari yig'indisi ularning hamkorlikda, ya'ni integratsiya qatnashchisi sifatida erishadigan daromadiga nisbatan kichik bo'ladi deb qaraladi.

Keltirib o'tilgan munosabatni har bir qatnashchining alohida oladigan yutug'ini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$W(1) = p_s q_s - C_s \quad (2)$$

$$W(2) = p_b q_b - C_b \quad (3)$$

bu yerda:  $W(1)$  - yakka holda faoliyat ko'rsatayotgan kichik qurilish korxonasi olishi mumkin bo'lgan foyda;  $W(2)$  - yakka holda faoliyat ko'rsatayotgan yirik qurilish korxonasi olishi mumkin bo'lgan foyda.

U holda yirik korxonaning va kichik korxonaning o'zaro integratsiyalashuvi asosida tashkil etiladigan hamkorligining subpudratchilikka asoslangan yutug'i quyidagicha bo'ladi:

$$W(I) = p^s q^s - C^s \quad (4)$$

Subpudratchilik asosidagi hamkorlikning samaradorligini aniqlash maqsadida keltirib o'tilgan 2-, 3- va 4- tenglamalardan foydalangan holda quyida keltirilgan tengsizlikka ega bo'lamiz:

$$(p_s q_s - C_s) + (p_b q_b - C_b) < p^s q^s - C^s \quad (5)$$

Keltirib chiqarilgan 5-formula shuni bildiradiki, yirik va kichik korxonaning subpudratchilik tizimidagi o'zaro hamkorligidan oladigan foydasi korxonalarining alohida, avtonom holatdagi foaliyati natijasida olishi mumkin bo'lgan foydadan sezilarlicha katta bo'lishi lozim. Ushbu shart bajarilgan taqdirdagina korxonalar o'zaro hamkorlik qilishga harakat qilishadi aks holda hamkorlik samarasiz faoliyat sifatida qaraladi.

Yuqoridagidan kelib chiqqan holda hamkorlikni samarasiz bo'lish holatini quyidagi (6) shart ko'rinishida ifodalash mumkin. Ushbu holatda (I,W) hamkorlik (o'yin) mohiyatsiz yoki ahamiyatsiz deyiladi:

$$\sum_{i \in I} W(i) \geq W(I) \quad (6)$$

$$\text{ya'ni} \quad (p_s q_s - C_s) + (p_b q_b - C_b) \geq p^s q^s - C^s \quad (7)$$

Demak, (7) shart bajarilsa, yirik va kichik qurilish korxonasining o'zaro hamkorligi natijasida olingan foyda miqdori korxonalar avtonom holda faoliyatini tashkil qilishi natijasida olishi mumkin bo'lgan foyda miqdoridan kichik bo'ladi. Bu kabi holatda korxonalarining hech biri o'zaro hamkorlik qilish, integratsiyaga kirishishdan manfaatdor bo'lmaydi. Agar ular birlashgan taqdirda ham hamkorlik natijasida yaxshi samara bermaganligi sababli beqaror bo'ladi. Shuning uchun ham, mazkur tadqiqot ishida faqat ahamiyatli kelishuvlar xususida to'xtalganmiz.

Integratsion hamkorlikda muhim tushunchalardan biri bu **ulush** bo'lib, uni  $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$  vektor ko'rinishida ifodalash mumkin. Ushbu vektorning har bir - elementi I qatnashchilar to'plami ixtiyoridagi naflarni taqsimlanganda  $i \in I$  qatnashchining olishi mumkin bo'lgan miqdorni ifodalaydi.

Tadqiqotda kichik va yirik qurilish korxonalarini tomonidan subpudratchilik shaklida faoliyatni tashkil qilish evaziga olinadigan foydani mos ravishda  $x_1$  va  $x_2$  bilan, subpudratchilik asosida ishlagani uchun yirik korxonaning mulk solig'idan ozod bo'lishi hisobiga iqtisod qilgan mablag'ini  $u_1$  va subpudratchilik asosida ishlagani uchun yirik korxonaning ma'lum imtiyozlarga ega bo'lishi, shuningdek to'lovlardan ozod bo'lishi hisobiga iqtisod qilgan mablag'ini  $u_2$  bilan belgilaymiz. U holda,

$$x_1 = p_s^s q_s^s - C_s^s \quad (8)$$

$$x_2 = y_1 + y_2 - C_b^s \quad (9)$$

bo'ladi.

Integratsiyadagi ulush ikkita shartni qanoatlantirishi talab qilinadi:

1) alohida holda ratsional bo'lishi kerak;

2) guruhiy holda ratsional bo'lishi kerak.

Birinchi shart shuni bildiradiki, hamkorlik qilinganda har bir qatnashchi eng kamida avtonom holda faoliyatini tashkil qilish natijasida olishi mumkin bo'lgan foydaga ega bo'lishi lozim. Taklif qilinayotgan hamkorlik shaklida, birinchi shartning bajarilishi shuni bildiradiki, subpudratchilik tizimida ishlayotgan korxonalaridan har birining foydasi ularning avtonom holda faoliyatini tashkil qilish natijasida oladigan foydasidan kam bo'lmasligi kerak.

Demak, birinchi shart o'rinli bo'lishi uchun quyidagi tengsizliklar tizimi ta'minlanishi lozim bo'ladi:

$$p_s^s q_s^s - C_s^s \geq p_s q_s - C_s \quad (10)$$

$$y_1 + y_2 + p_b^s q_b^s - C_b^s \geq p_b q_b - C_b \quad (11)$$

Keltirib o'tilgan 10 – tengsizlik kichik qurilish korxonasi subpudratchilik asosida yirik qurilish korxonasi bilan hamkorlikda faoliyat olib borib, o'zi avtonom holda faoliyat yuritgandagiga qaraganda kam bo'lmagan foyda olishi kerakligini ifodalaydi. 11 – tengsizlik esa, yirik qurilish korxonasi subpudratchilik asosida kichik qurilish korxonasi bilan hamkorlikda faoliyatini tashkil qilishi, o'zi avtonom holda ishlagandagiga qaraganda kam bo'lmagan foyda olishi kerakligini bildiradi.

Guruhiy ratsionallik shartiga ko'ra, integratsiya ishtirokchilari birlashuvi natijasida olinadigan samara ular o'rtasida taqsimlanishi kerak, ya'ni integratsiyada ishtirok etishdan ikkala subyekt ham manfaatdor bo'lishi lozim aks holda hamkorlik samarali bo'lmaydi. Biz ko'rayotgan modelda korxonalarining subpudratchilik tizimida  $(p^s q^s - C^s)$  o'zaro hamkorlik qilishi natijasida olingan foyda ular o'rtasida bo'linishi, ya'ni quyidagi (3.2.12) tenglik bajarilishi talab qilinadi:

$$(p_s^s q_s^s - C_s^s) + (y_1 + y_2 + p_b^s q_b^s - C_b^s) = p^s q^s - C^k \quad (12)$$

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki, rivojlangan g'arb mamlakatlari tajribasiga ko'ra, milliy iqtisodiyot va uning mintaqalari, tarmoqlari iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishi bevosita ularda faoliyat yuritayotgan kichik firmalar va yirik korxonalarining o'zaro integratsiya darajasi bilan belgilanadi. Fikrimizcha, yirik va kichik qurilish korxonalarining yuqorida keltirib o'tilgan shaklda subpudratchilik asosidagi integratsion aloqalarini modellashtirish hamkorlik samaradorligini aniqlash bo'yicha qator imkotiyatlarni yaratib beradi:

-*birinchidan*, yirik va kichik qurilish korxonalarining nafaqat subpudratchilik asosidagi, balki istalgan shakldagi integratsion aloqalarining afzalliklarini ko'rsatish va tomonlar uchun teng manfaatli ekanligini asoslashga;

-*ikkinchidan*, barcha shakldagi kichik va yirik qurilish korxonalarini integratsion aloqalarining amal qilish shartlarini asoslashga;

-*uchinchidan*, kichik va yirik qurilish korxonalarini integratsion aloqalari hamda hamkorlik natijasida vujudga keladigan sinergetik samaradorligi bo'yicha iqtisodiy qarorlar qabul qilishga;

-*to'rtinchidan*, makro va mikro darajada iqtisodiyot tarmoqlari, mintaqalar kesimida kichik hamda yirik qurilish korxonalarining o'zaro hamkorliklari istiqbollarni belgilash bo'yicha davlat va mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqishga va

h.k.

Kichik va yirik qurilish korxonalarining integratsion aloqalarini tadqiq qilish bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari taraqqiyotini ta'minlashda muhim bo'lgan yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Natijada, ushbu muammo dolzrab bo'lgan hamda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun muhim masala hisoblanadi. Xususan, hamkorlik natijasida vujudga keladigan samaradorlikni baholash mazkur yo'nalishning ahamiyatligini asoslashga xizmat qilishini inobatga olgan holda, mazkur ilmiy tadqiqot ishida kichik va yirik qurilish korxonalarining subpudratchilik asosidagi integratsion aloqalarini ayrim jihatlarini yoritib o'tdik xolos.

Fikrimizcha yirik va kichik qurilish korxonalarining integratsion hamkorligini tashkil qilishda keltirib o'tilgan modellardan foydalangan holda ularning samaradorligini aniqlash va baholash hamkorlik qatnashchilari uchun faoliyat samaradorligini asoslashga xizmat qiladi. Natijada olingan natijalar asosida subpudratchilik asosida kichik va yirik qurilish korxonalari o'rtasida integratsiyani tashkil qilish ularning samaradorligini oshirishga va sinergetik samaraga ega bo'lishga imkoniyat yaratadi.

## XULOSA

Yirik va kichik qurilish korxonalarida integratsion aloqalarni samarali tashkil etish qurilish sohasida barqaror rivojlanish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qurilish korxonalari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari faqatgina pudrat va subpudrat shaklidagi an'anaviy aloqalar bilan cheklanib qolmasligi, balki texnologik, moliyaviy, logistika, axborot va innovatsion yo'nalishlarni ham qamrab olishi lozim.

Yirik qurilish korxonalari ko'proq moliyaviy barqarorlik, zamonaviy texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va yirik infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish salohiyatiga ega bo'lsa, kichik qurilish korxonalari moslashuvchanlik, tezkorlik, mahalliy bozor sharoitlariga yaqinlik va ayrim ixtisoslashgan xizmatlarni samarali bajarish imkoniyati bilan ajralib turadi. Shu sababli ushbu ikki turdagi korxonalar o'rtasida o'zaro manfaatli integratsion aloqalarni kuchaytirish qurilish jarayonlarida xarajatlarni kamaytirish, ish sifati va muddatiga rioya etish, mehnat unumdorligini oshirish hamda raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maqolada yirik va kichik qurilish korxonalari o'rtasidagi integratsion aloqalar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida kooperatsiya mexanizmlarini takomillashtirish, subpudrat munosabatlarida shaffoflikni kuchaytirish, raqamli boshqaruv platformalaridan foydalanish, loyiha ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvini tezlashtirish, ta'minot zanjirini optimallashtirish hamda kichik korxonalarni yirik loyihalarga jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi asoslab berildi.

Shuningdek, qurilish korxonalari o'rtasida integratsion aloqalarni rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish, kichik korxonalar uchun moliyaviy va texnologik imkoniyatlarni oshirish muhim

ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, elektron tender tizimlari, BIM texnologiyalari, elektron hujjat aylanishi va loyiha monitoringi vositalaridan foydalanish korxonalar o'rtasidagi aloqalarni yanada shaffof, tezkor va samarali tashkil etishga imkon beradi.

Umuman olganda, yirik va kichik qurilish korxonalarining integratsion aloqalarini rivojlantirish qurilish sohasida institutsional barqarorlikni ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda korxonalararo hamkorlikning klasterlashuv, raqamli platformalar, innovatsion konsorsiumlar va uzoq muddatli strategik sheriklik asosidagi modellarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.S. Qosimova., Tadbirkorlik va innovatsiyalar. / Darslik.- Toshkent: TDIU, 2024.- 326 b.
2. R.H.Ayupov, G'.R.Baltabayeva. Kichik biznes va tadbirkorlikda innovatsion rivojlanish yo'nalishlari. T.: TMI, 2018, 235 bet.
3. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. Moliya, 2016. 208 b. Toshkent:
4. Butikov I., Xamraxodjayev N. Venchurli moliyalashtirish: xorijiy mamlakatlar tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari // Korxonani boshqarish. - Toshkent, 2011. - No11, - B. 8-15.
5. Alimova N. Organizatsionna-ekonomicheskiye mexanizmy motivatsii innovatsionnoy deyatelnosti na promyshlennyykh predpriyatiyax // Iqtisod va moliya. - Toshkent, 2012.-No4, str. 2-8.
6. Хонкелдиева К., Маматкулова Ф. Социально-экономические аспекты устойчивого развития предприятия //Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы. – 2020. – С. 36-37.
7. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
8. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi portali.
9. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.